



## SUN'IY INTELLEKT VA UNDAGI HUQUQBUZARLIKLAR

**Narzullayeva Gavhar Aziz qizi,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xususiy huquq fakulteti talabasi  
[narzullayevagavhar67@gmail.com](mailto:narzullayevagavhar67@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt va uning yordamida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, shuningdek sun'iy intellektni qo'llash sohasida qonun normalarida belgilangan tartibda xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik va uning natijasida kelib chiqadigan zararli oqibatlar, sun'iy intellekt faoliyatining huquqqa xilof oqibatlari natijasida javobgarlik masalalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida yetkazilgan zarar sabablarini aniqlash maqsadida dasturchi, ishlab chiqaruvchi, foydalanuvchi yoki uning ishiga noqonuniy aralashgan va boshqa shaxsning harakatlarini (harakatsizligini) tahlil qilish va baholash masalalari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt; fuqarolik huquqiy javobgarlik; jinoiy javobgarlik; ma'muriy javobgarlik; zarar; xalqaro tajriba; raqamlashtirish; axborot xavfsizligi. sun'iy intellektni tartibga solish; huquqiy bo'shliqlar; raqamli iqtisodiyot; xalqaro tajriba; huquqiy mexanizmlar; shaxsiy ma'lumotlar himoyasi; robototexnika huquqi.

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С НИМ

**Нарзуллаева Гавхар Азиз кызы**  
Студентка факультета частного права  
Ташкентский государственный юридический университет  
[narzullayevagavhar67@gmail.com](mailto:narzullayevagavhar67@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с искусственным интеллектом (ИИ) и правонарушениями, совершаемыми с его использованием. Анализируется несоблюдение требований безопасности, установленных законодательством при применении ИИ, и его возможные негативные последствия. Также рассматриваются вопросы правовой ответственности за противоправные результаты деятельности ИИ. Кроме того, в статье исследуется выявление причин ущерба, причинённого с помощью ИИ, путём анализа действий (или бездействия) разработчиков, производителей, пользователей или третьих лиц, незаконно вмешивающихся в функционирование ИИ-систем.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект; гражданско-правовая ответственность; уголовная ответственность; административная ответственность; ущерб; международный опыт; цифровизация; информационная.

безопасность; регулирование ИИ; правовые пробелы; цифровая экономика; правовые механизмы; защита персональных данных; право робототехники.

## ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND RELATED LEGAL VIOLATIONS

**Narzullayeva Gavhar Aziz qizi**

*Student, Faculty of Private Law*

*Tashkent State University of Law*

[narzullayevagavhar67@gmail.com](mailto:narzullayevagavhar67@gmail.com)

**Abstract:** This article examines artificial intelligence (AI) and the legal violations committed through its use. It analyzes the consequences of non-compliance with legally established safety requirements in the field of AI application and explores the harmful outcomes that may arise from such violations. The article also addresses legal liability resulting from the unlawful outcomes of AI activity. In addition, it investigates the issue of identifying the causes of damage caused by AI by analyzing and assessing the actions (or inaction) of developers, manufacturers, users, or unauthorized third-party actors who interfere with AI systems.

**Keywords:** artificial intelligence; civil liability; criminal liability; administrative liability; damage; international experience; digitalization; information security; AI regulation; legal gaps; digital economy; legal mechanisms; personal data protection; robotics law.

### KIRISH

XXI asrda texnologik innovatsiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt (SI) esa bu jarayonda yetakchi texnologiyalardan biriga aylanib, avtomatlashtirilgan tizimlar, robototexnika va algoritmlarga asoslangan xizmatlar orqali faoliyat yuritmoqda. Ushbu texnologiyaning rivojlanishi turli sohalarga qulayliklar yaratgan bo'lsa-da, muayyan huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, SI ishtirokida yuzaga kelgan zarar uchun kim javobgar ekani borasida global muhokamalar davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida "Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yangi yuridik me'yorlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda", deya ta'kidlab o'tgan edi. Ushbu fikrdan kelib chiqib, O'zbekistonda ham zamonaviy texnologiyalarga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish dolzarb masala ekanini ko'rish mumkin. Maqolaning asosiy qismida sun'iy intellektning huquqiy maqomi, SI tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi hamda xorijiy va mahalliy tajribalar asosida huquqiy bo'shliqlar va takliflar tahlil qilinadi.

**Sun'iy intellektning huquqiy maqomi**



Sun'iy intellekt texnologiyalari huquqiy jihatdan murakkab masala bo'lib, uning yuridik maqomi hali aniq belgilanmagan. Aksariyat davlatlarda SI huquqiy shaxs sifatida tan olinmaydi. Amerika Qo'shma Shtatlarining (A BILL to establish the National Artificial Intelligence Initiative and for other purposes) nomli qonunida sun'iy intellektga ta'rif berilgan. Mazkur qonunga ko'ra "Sun'iy intellekt" atamasi bu inson tomonidan belgilangan maqsadlar to'plami uchun bashorat qila oladigan, tavsiya bera oladigan va qaror qabul qila oladigan mashinaga asoslangan tizimni anglatadi. Rossiya Federatsiyasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda sun'iy intellektni rivojlantirish milliy strategiyasi" da sun'iy intellekt (SI) inson miyasining aqliy (kognitiv) funksiyalariga (shu jumladan mustaqil o'rganish va mustaqil ravishda yechimlarni izlash) taqlid qilishga va insonning intellektual faoliyati natijalariga taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lum natijalarga erishishga qodir bo'lgan, texnologik yechimlar majmui deb belgilanadi.<sup>20</sup> Yevropa Parlamentining P8\_TA-PROV (2017) 0051 "Robototexnika haqida fuqarolik huquqi qoidolari" rezolyutsiyasida sun'iy intellekt ostida boshqa shunga o'xshash tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishga, mustaqil o'rganish, o'z qarorlari, harakatlari va xulq-atvorini atrof-muhit sharoitlariga moslashtirishga qodir bo'lgan biologik bo'lmagan avtonom kiberfizik tizimni tushunish taklif etiladi. YUNESKO ning Ilmiy bilimlar va texnologiyalar etikasiga doir Butunjahon komissiyasi (KOMEST) 2017 yilgi "Robototexnika etikasiga doir" hisobotida zamonaviy robotning to'rtta asosiy jihati qayd etilgan: mobillik; interaktivlik; kommunikativlik; inson tomonidan bo'ladigan aralashuv va nazoratsiz tahlil qilish va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish imkonini beradigan avtonomlik. Albatta, sun'iy intellekt texnologiyasining boshqa ko'plab tushunchalari va talqinlari mavjud. Robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi SI'ni muayyan darajada "subyekt" sifatida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Germaniyalik olim Andreas Matthias sun'iy intellekt uchun "sun'iy shaxs" maqomini joriy etishni taklif qilgan. Unga ko'ra, SI tomonidan qilingan xatti-harakatlar uchun alohida huquqiy javobgarlik tizimi yaratilishi lozim. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi Parlamenti 2017-yilda SI'ga "elektron shaxs" maqomini berish masalasini muhokama qilgan. Bu borada O'zbekiston qonunchiligida hali aniq normalar mavjud emas. Biroq, mavjud fuqarolik qonunchiligi asosida zarar yetkazilgan taqdirda, uni yetkazgan shaxs (yoki uni nazorat qilgan shaxs) javobgarlikka tortilishi mumkin. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdagi muammolar SI tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda quyidagi muammolar mavjud: dasturchining javobgarligi, SI'ni ishlab chiqishda yuzaga kelgan xato va kamchiliklar uchun dasturchi javobgarlikka tortilishi mumkinmi? Foydalanuvchining javobgarligi: SI'dan foydalangan shaxsning noxush hodisalar uchun javobgarligi qanday belgilanadi? SI'ning mustaqil harakati: Dasturchi yoki foydalanuvchining ta'siri bo'lmagan holatlarda SI

<sup>20</sup> <https://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/72738946/>





tomonidan yetkazilgan zarar uchun kim javob beradi? Bu masalalar O'zbekiston qonunchiligida hali to'liq tartibga solinmagan.

### **Xorijiy mamlakatlar tajribasi**

Chet el tajribasi: Sun'iy intellekt (SI) ishtirokida yuzaga keladigan fuqarolik- huquqiy javobgarlik masalasi dunyoning turli mamlakatlarida har xil yondashuvlar asosida hal qilinmoqda. Aksariyat davlatlarda bu masala hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ayrim mamlakatlarda muhim qonunchilik asoslari ishlab chiqilgan. Quyida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Rossiya tajribasi batafsil yoritiladi.

**AQSh tajribasi.** AQSh texnologik innovatsiyalar va sun'iy intellekt sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda SI tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilashda quyidagi tamoyillar amal qiladi: Mahsulotga javobgarlik (Product Liability): AQSh qonunchiligida sun'iy intellekt tizimlari odatda mahsulot sifatida ko'riladi. Bu degani, agar SI tomonidan zarar yetkazilsa, javobgarlik ko'pincha uni ishlab chiqqan kompaniya yoki dasturchiga yuklatiladi. **“Black Box” masalasi.** AQSh sud tizimida SI algoritmlarining murakkabligi sababli ularning qanday qaror qabul qilgani noma'lum bo'lib qolishi mumkin. Bu esa sud jarayonida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Misol: 2018-yilda Uber kompaniyasining o'z-o'zini boshqaruvchi avtomobili inson o'limiga sabab bo'lganida kompaniya javobgarlikka tortilgan. Bu holatda avtomobil ishlab chiqaruvchisi emas, balki texnologiyani nazorat qiluvchi kompaniya aybdor deb topilgan.

**Yevropa Ittifoqi tajribasi.** Yevropa Ittifoqi (YI) SI texnologiyalari uchun batafsil qonunchilik asoslarini ishlab chiqmoqda. 2021-yilda qabul qilingan Artificial Intelligence Act (Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun loyihasi) YI davlatlarida SI uchun aniq yuridik normalarni belgilashni nazarda tutadi. Yuqori xavfli SI tizimlari: YI qonunchiligiga ko'ra, tibbiyot, transport va sud tizimlarida qo'llaniladigan SI texnologiyalari yuqori xavf toifasiga kiritilib, ularga maxsus nazorat choralari qo'llaniladi. Elektron shaxs (Electronic Person) konsepsiyasi: YI Parlamentida SI'ga “elektron shaxs” maqomini berish masalasi muhokama qilingan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, SI mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega emas, lekin uning harakati uchun ishlab chiqaruvchi yoki operator javobgar bo'ladi. Javobgarlikning taqsimlanishi: Agar zarar SI algoritmidagi xato yoki noto'g'ri ma'lumotlar sababli yuzaga kelsa, ishlab chiqaruvchi javobgar bo'ladi. Agar foydalanuvchi SI'ni noto'g'ri sozlagan bo'lsa, u holda foydalanuvchi javobgar hisoblanadi. Misol: YI mamlakatlarida aqlli transport vositalari, tibbiy texnologiyalar va moliyaviy algoritmlarda yuzaga keladigan muammolar uchun ishlab chiqaruvchi kompaniyalar to'liq javobgarlikka tortiladi.

**Xitoy tajribasi.** Xitoy sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Xitoyda SI ishtirokida yuzaga keladigan huquqiy masalalar bo'yicha maxsus hujjatlar qabul qilingan. “Sun'iy intellekt xavfsizligi to'g'risida”gi qonun (2021-yil): Ushbu qonunda SI tomonidan zarar yetkazish holatlarida javobgarlikning taqsimlanishi aniq belgilangan. **Javobgarlik tizimi:** Xitoy qonunchiligida SI'ning mustaqil harakati sabab yuzaga kelgan zarar uchun ishlab chiqaruvchi va texnologiyani nazorat



qiluvchi shaxs birgalikda javobgar hisoblanadi. **Ma'lumotlar xavfsizligi:** Xitoyda SI'ning shaxsiy ma'lumotlarni noto'g'ri qayta ishlashi yoki oshkor etishi holatida kompaniya yirik jarimaga tortilishi mumkin. **Misol:** 2022-yilda Xitoyda SI algoritmlari asosida ishlovchi tibbiy tashxis tizimida noto'g'ri natija berilishi natijasida bemorga zarar yetkazilgani uchun dasturchi kompaniya sud tomonidan jarimaga tortilgan. Davlatimiz qonunchiligida tahlilida: O'zbekiston hozircha sun'iy intellektga oid maxsus huquqiy normalar mavjud emas. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasida zarar yetkazish uchun javobgarlik umumiy tamoyillari belgilangan. Ushbu normalarni SI'ga moslashtirish va qonunchilikda yangiliklar kiritish zarurati mavjud. Shuningdek **Yevropa Ittifoqi tomonidan 2022-yil 28-sentabrda qabul qilingan "Artificial intelligence liability directive"** ga ko'ra: SI Yevropa Ittifoqi yoki milliy qonunlar bilan himoyalangan manfaatlar va huquqlarga zarar etkazishi mumkin. Masalan, sun'iy intellektidan foydalanish bir qator asosiy huquqlarga, jumladan, hayot, jismoniy yaxlitlik, kamsitilmaslik va teng muomalaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu hujjat xavfsizlik va asosiy huquqlar uchun xavflarni kamaytirishga qaratilgan talablarni kiritadi. Yevropa Ittifoqining boshqa qonun hujjatlari sun'iy intellektga ega mahsulotlarga nisbatan ham qo'llaniladigan umumiy va tarmoq qoidalarini tartibga soladi. Garchi bunday talablar xavfsizlik va asosiy huquqlarga taalluqli xavflarni kamaytirish, ijtimoiy tashvishlarning oldini olish, monitoring qilish va hal qilishga qaratilgan bo'lsa-da, ular SI tufayli zarar ko'rganlarga individual yordam bermaydi. Mavjud talablar, xususan, shikastlanishning oldini olish uchun AI tizimlariga nisbatan ruxsat berish, tekshirish, monitoring va ma'muriy jazo choralarini nazarda tutadi. Ushbu hujjat SI tizimi tomonidan ishlab chiqarish yoki mahsulot ishlab chiqarilmasligi natijasida jabrlangan shaxsga yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutmaydi. Sun'iy intellektning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklaridan foydalanish va raqamli iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish uchun ma'lum milliy fuqarolik javobgarligi qoidalarini ma'lum SI tizimlarining o'ziga xos xususiyatlariga maqsadli tarzda moslashtirish kerak. Bunday moslashuvlar jamiyat va iste'molchilar ishonchiga hissa qo'shishi va shu tariqa sun'iy intellektning keng tarqalishiga yordam berish kerak. Bunday moslashuvlar, shuningdek, AI ishtirokida yetkazilgan zarar qurbonlari boshqa texnologiyalar tufayli yetkazilgan zarar qurbonlari bilan bir xil samarali kompensatsiyaga ega bo'lishini ta'minlash orqali **sud tizimiga ishonchni saqlash lozim**. Ushbu hujjat **minimal muvofiqlashtirish yondashuviga amal qiladi**. Bunday yondashuv AI tizimlari tomonidan yetkazilgan zararda da'vogarlariga **milliy qonunchilikning yanada qulay qoidalarini qo'llash imkonini beradi**. Shunday qilib, milliy qonunlar, masalan, milliy qonunchilikda juda xilma-xil bo'lgan, ehtimol, sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zararga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan milliy aybsizlikka asoslangan rejimlar yoki milliy aybsiz javobgarlik ("qat'iy javobgarlik" deb ataladi) rejimlari ostida isbotlash yukining bekor qilinishini saqlab qolishi mumkin.

Zarar yetkazganlikda gumon qilinayotgan maxsus yuqori xavfli SI tizimlari haqidagi **ma'lumotlarga kirish**, kompensatsiya talab qilish va tovon to'lash bo'yicha





da'volarni asoslash uchun muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari uchun SI qonuni maxsus hujjatlar, ma'lumotlar va jurnallarni ro'yxatga olish talablarini nazarda tutadi, ammo **jabrlanuvchiga ushbu ma'lumotlarga kirish huquqini bermaydi**. Shuning uchun javobgarlikni belgilash maqsadida tegishli dalillarni o'z ixtiyorida bo'lgan shaxslar tomonidan oshkor qilish qoidalarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu, shuningdek, tegishli ma'lumotlarni hujjatlashtirish yoki yozib olish uchun AI to'g'risidagi qonunda belgilangan tegishli talablarga **rioya qilish uchun qo'shimcha rag'batlantirishni ta'minlashi kerak**.

Jabrlangan shaxslarga zararni qoplash to'g'risidagi da'voning asosli yoki asosli emasligini aniqlashga imkon berish uchun potentsial da'vogarlariga zararni qoplash to'g'risida da'vo qo'yishdan oldin **sudga tegishli dalillarni oshkor qilishni talab qilish huquqini berish maqsadga muvofiqdir**.

Milliy sudlar fuqarolik protsessi jarayonida SI to'g'risidagi qonunga muvofiq ma'lumotlarni hujjatlashtirish yoki yozib olish majburiyati ostida bo'lgan shaxslardan yuqori xavfli SI tizimlari tomonidan yetkazilgan zarar bilan bog'liq tegishli **dalillarni oshkor qilish yoki saqlashni buyura oladi**. Shu yo'l orqali sud SI tomonidan zarar yetkazilganda javobgarni aniqlash uchun yetarlcha dalillarni to'play oladi va bu kelgusida SI tomonidan yoki u orqali huquqbuzarliklar soni keskin qisqarishga sabab bo'ladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining (A BILL to establish the National Artificial Intelligence Initiative and for other purposes) nomli qonunida sun'iy intellektga ta'rif berilgan.<sup>21</sup> Mazkur qonunga ko'ra "Sun'iy intellekt" atamasi bu inson tomonidan belgilangan maqsadlar ko'ra uchun bashorat qila oladigan, tavsiya bera oladigan va qaror qabul qila oladigan mashinaga asoslangan tizimni anglatadi. Rossiya Federatsiyasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda sun'iy intellektni rivojlantirish milliy strategiyasi" da sun'iy intellekt (SI) inson miyasining aqliy (kognitiv) funksiyalariga (shu jumladan mustaqil o'rganish va mustaqil ravishda yechimlarni izlash) taqlid qilishga va insonning intellektual faoliyati natijalariga taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lum natijalarga erishishga qodir bo'lgan, texnologik echimlar majmui deb belgilanadi. **Yevropa Parlamentining P8\_TA-PROV (2017) 0051 "Robototexnika haqida fuqarolik huquqi qoidalari" rezolyutsiyasida** sun'iy intellekt ostida boshqa shunga o'xshash tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishga, mustaqil o'rganish, o'z qarorlari, harakatlari va xulq-atvorini atrof-muhit sharoitlariga moslashtirishga qodir bo'lgan biologik bo'lmagan avtonom kiberfizik tizimni tushunish taklif etiladi. **YUNESKO ning Ilmiy bilimlar va texnologiyalar etikasiga doir Butunjahon komissiyasi (KOMEST) 2017 yilgi "Robototexnika etikasiga doir" hisobotida** zamonaviy robotning to'rtta asosiy jihati qayd etilgan: mobillik; interaktivlik; kommunikativlik; inson tomonidan bo'ladigan aralashuv va nazoratsiz tahlil qilish va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish va

<sup>21</sup> . <https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/6216/text>



harakatlarni amalga oshirish imkonini beradigan avtonomlik. Albatta, sun'iy intellekt texnologiyasining boshqa ko'plab tushunchalari va talqinlari mavjud.

### **Sun'iy intellekt va yuridik javobgarlik**

Zamonaviy robotlarning intellekti qanchalik kuchli bo'lmasin, ularning yaratilishi va faoliyat yuritish asoslari insonga bog'liq ekan – ularning ishining oqibati uchun inson javobgar bo'lishi kerak. Uni yaratishga daxldor bo'lgan shaxslarning, SI qo'llanilishida yuz berishi mumkin bo'lgan ehtimoliy salbiy oqibatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasidan soqit qilishga kuchli istagi bo'lsa-da, hech qanday holatda bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Inson hayoti uchun g'oyat muhim bo'lgan bunday masalada mas'uliyatsizlik, o'zboshimchalik oqibatlariga olib kelishi muqarrar.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, bir qator mualliflar SI'ga huquq subyekti maqomini berish masalasini muhokamaga qo'yish hali erta ekanligini asoslaydilar. Shu bilan birga, aksariyat olimlar SI subyektiga huquqiy maqom berish ehtiyoji hozircha mavjud emasligini tan olishsa ham, kelajakda aqlli mashinalarga huquqiy maqom berish masalasi muqarrar ravishda ko'tarilishini ta'kidlaydilar. Ayni damda SI'ga elektron shaxs huquqiy maqomini berish, uning avtonom va mustaqilligini tan olish, jismoniy va yuridik shaxslar (ya'ni undan foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi, yaratuvchi)ni ularning harakatlari uchun javobgarlikdan ozod qilish emas, balki SI javobgarligini tartibga solishga qaratilgan bo'lishi hamda SI va uning orqasida turgan shaxslar javobgarligini to'laqonli farqlash muammolari hal etishi lozim. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlillari asosida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 999-moddasiga o'zgartirish kiritib, SI tizimlarini oshiqcha xavf manbai deb tan olish, shuningdek, barcha yangi yaratilgan va muomalaga kiritilayotgan SI texnologiyalarining potensial xavfidan kelib chiqib, keng doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan SI texnologiyalarini ekspertizadan o'tkazishning ma'muriy tartibini belgilash zarurligi asoslantiriladi. Sun'iy intellektning rivojlantirishning taklif etilayotgan vaqt bosqichlari va sun'iy intellektning huquq subyekti ekanligi va huquqiy javobgarligini belgilovchi qonun hujjatlarini yaqin istiqbol, o'rta istiqbol va uzoq muddatli istiqbolda sun'iy intellekt huquqiy javobgarligini tartibga solish, SI subyektlarining huquqiy maqomi va mazmuni, yuridik faktlar va javobgarlikka tortish mexanizmlarini belgilab beruvchi kodifikatsiyalashtirilgan normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi kutiladi, degan fikr ilgari surilmoqda. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik (delict) uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning bir necha yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Unga ko'ra, birinchi model, **“The Perpetration-by-Another”** (boshqa shaxs orqali sodir etish) modeli sun'iy intellektning javobgarlik subyekti sifatida tan olmaydi va bir vaqtning o'zida huquqqa xilof harakat va ayb, ruhiy holat kombinatsiyasiga ega bo'lishini talab qilmaydi. Ikkinchi model, **“The Natural-Probable-Consequence Liability”** (tabiiy, ehtimoliy oqibat) modeli, dasturchining (foydalanuvchining) javobgar bo'lishi uchun huquqqa xilof harakat va ayb, ruhiy holat bo'lishi shartligini nazarda tutmaydi. Bu holat sun'iy intellekt tizimidan normal foydalanish vaqtida yuz bergan ehtiyotsizlik va xato tufayli huquqbuzarlik sodir etilganda yuzaga keladi.



Uchinchi model, **“The Direct Liability”** (to‘g‘ridan to‘g‘ri javobgarlik) modeli bo‘lib, u butunlay boshqacha xarakterga ega. U sun‘iy intellektni keyinchalik fuqarolik- huquqiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan mustaqil huquq subyekti deb hisoblaydi. Model nomidan ko‘rinib turibdiki, u to‘g‘ridan to‘g‘ri sun‘iy intellekt javobgarligini belgilaydi, SI harakatlari uchun dasturchi (foydalanuvchi) javobgar hisoblanmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismini yangi 1041-modda “Robot agentning xatti-harakatlari uchun javobgarlik” bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Inson intellekti va raqamli intellekt – bu ikkita parallel, mutlaqo turli xil “koinot”dir. “Aqlli” robotda qanday asosda insoniy fazilatlar, huquqlar, burchlar va javobgarlik mavjud bo‘lishi – bu tushunarsiz. O‘ziga o‘xshash narsa yaratmoq uchun, inson miyasi va ongi qanday tuzilganini va ishlashini aniq bilish va tushunish kerak, lekin biz buni hattoki ozgina ham bilmaymiz. Sun‘iy intellektga maxsus huquq muomalasini berish taklifi shu kabi, eng ilg‘or robotlarga o‘zlari, inson aralashuvisiz mustaqil ravishda qaror qabul qilgan holatda <sup>22</sup>, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan “elektron shaxs” maqomini berish tavsiyasi, faqat fuqaro-huquqiy sohada nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ma‘muriy va jinoyiy javobgarlik holatlarida bunday yondashuv maqbul ko‘rinmaydi, chunki ularni amalga oshirish uchun ongli ravishda o‘z huquqini amalga oshirish va majburiyatini bajarish (inson kabi atrofdagi voqelikda o‘zini, o‘z harakatlari va qilmoqlariga baho berish) talab etiladi. Javobgarlikning bu turlari inson shaxsi ruhiyati, bunday javobgarlikni his qilish va anglab yetish bilan uzviy bog‘liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, SI’ni “elektron shaxs” sifatida tan olish, uning hulq-atvorida subyektiv huquqbuzarliklar, huquqqa xiloflik va boshqa shu kabi takliflar munozarali ko‘rinadi. Inson va robotni turli huquqlarda, masalan yashash, mehnat huquqi va boshqa huquqlarda tenglashtirish haqida hatto gapirish ham no‘rin bo‘lib hisoblanadi.

Mustaqil o‘rganadigan robotlarning onglilik darajasi va fikrlash imkoniyatlarini aniqlash, hamda ularning faoliyati natijalari qanday bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkinligini anglab yetish mumkin bo‘lsa ham, ularning huquqiy maqomini insonniki bilan tenglashtirish aqilona yo‘l emas. Insonning, ma‘lum darajada his-tuyg‘uli, emotsional intellekti ratsional-raqamli ruhiyatsiz intellektga qarshi turishi imkonsizdir. Buni tegishli davlat qarorlari va qonunlarini qabul qiluvchi odamlar aniq va ravshan tushunishi kerak. Bunday jiddiy va insoniyat uchun xavfli texnologiyalarni yaratish va rivojlantirish jarayonini oz sonli mutaxassislariga ishonib topshirib qo‘yishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Aks holda, bu insonlar uchun daxshatli g‘ayriinsoniy va halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Tegishli qonunlarda nafaqat SI’ni yaratish va qo‘llash maqsadlari, balki uning ishlashi kim tomonidan, qanday nazorat qilinishi va javob berishi aniq belgilanishi lozim.

---

<sup>22</sup> . «Нормы гражданского права о робототехнике.

[/http://robopravo.ru/riezoliutsiia\\_ies](http://robopravo.ru/riezoliutsiia_ies) (дата обращения 5.08.20 г.)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmonida; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2017 yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadallashish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4996-son qarorida; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 31 iyuldagi "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-475-son qarorida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2021 yil 26 avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qarorlarida belgilanadigan tamoyil va talablar qat'iy rioya etilishi lozim. Inson farovonligi va xavfsizligi ustuvorligi, uning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, inson nazorati ostida bo'lish va inson tomonidan qonunga xilof ravishda manipulyatsiya qilishga yo'l qo'ymaslik— sun'iy intellekt tizimlari ishlab chiqaruvchilari, yaratuvchilari va foydalanuvchilari uchun so'zsiz qo'llaniladigan qoidalarga aylanishi kerak. Ushbu talablarni buzganlik uchun, avtonom tarzda faoliyat yurituvchi sun'iy intellekt faoliyatining qonunga xilof (qolaversa, ijtimoiy xavfli) oqibatlarini uchun inson javobgar bo'lishi kerak. Hatto nazoratdan chiqqan va o'ziga o'xshash robotlarni yaratishga qodir bo'lgan avtonom intellektual tizimlar uchun ham, u yoki bu tarzda inson javobgar bo'lishi shart. U bu fenomen sababi va yaratuvchisi bo'lib, o'zi yaratgan narsaning oqibatlarini nazorat qilishi va javobgar bo'lishga majburdir. Ayniqsa, kim, qanday holatlarda, qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olishi lozim — bu jiddiy mulohaza va yechim talab qiladigan savollar. Yuridik javobgarlikning asosi — bu huquqbuzarlikni sodir etishdir, u to'rtta element bilan tavsiflanadi:

**Obyekt** (qonun bilan himoyalangan holat, buzilgan moddiy yoki nomoddiy ne'mat);

**G'ayriqonuniy qilmish** (zararli oqibatlarga ega, qonun bilan taqiqlangan harakat yoki harakatsizlik va ular o'rtasidagi sababi-bo'g'liq aloqasi);

**Subyekt** (huquqbuzarlikni sodir etgan muomala bilan laoyqatli shaxs);

**Ayb** (huquqbuzarning qilmishiga va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati, fuqarolik qonunchiligi bo'yicha aybsiz javobgarlik holatlari bundan mustasno).

An'anaviy ravishda, qonunga xilof qilmish deganda bevosita insonning o'zi tomonidan huquq (qonun)da taqiqlangan harakat yoki harakatsizligi (ixtiyoriy xulq-atvori) tushuniladi. Endilikda esa, qonun bilan himoya qilingan munosabatlarga yetkazilgan zarar, yuqorida bayon qilingan mulohazalarga ko'ra inson bilan teng yuridik javobgarlikka ega bo'lishga qodir bo'lmagan "aqlli" robot tomonidan sodir qilinadi. Bunday hollarda SI ning zararli faoliyati sabablarini aniqlash uchun dasturchi, ishlab chiqaruvchi, foydalanuvchi yoki uning ishiga noqonuniy aralashgan boshqa shaxsning harakatlarini (harakatsizligini) tekshirish va baholash kerak bo'ladi. Sun'iy intellektning huquqiy maqomi va javobgarligi haqida bahslar ko'plab yuridik va axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, dunyo bo'ylab davlatlar sun'iy intellekt tizimlariga oid qonunchilikni ishlab chiqish jarayonida. Biroq,





sun'iy intellektni rivojlantirish jarayonida inson huquqlarini himoya qilish va himoyasizlarga zarar yetkazmaslik uchun maxsus va qat'iy normativ hujjatlar kerak.

Sun'iy intellektni qo'llashda, insoniyat uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish uchun o'z vaqtida va aniq qonunlar ishlab chiqilishi lozim. O'zbekistonda ham bu sohada huquqiy va normativ bazani shakllantirish uchun kuchli e'tibor qaratilmoqda. Bu borada samarali siyosat va texnologik yangiliklar o'rtasida balansni saqlash muhimdir. Yana bir bor ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt va uning ilovalarini rivojlantirish jarayonida asosiy e'tibor insoniyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, robotlar va sun'iy intellekt tizimlarining yuridik maqomini, ular bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni va javobgarlikni aniqlash, qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Bu borada xalqaro miqyosda ham izlanishlar olib borilmoqda. Sun'iy intellekt tizimlariga aloqador qonunlarni ishlab chiqish uchun birgalikda harakat qilish, davlatlar o'rtasida kelishuv va hamkorlikni talab qiladi. Shunday qilib, sun'iy intellekt tizimlarining xavf-xatarlarini minimallashtirish, odamlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, yangi texnologiyalarni qo'llashda etik va huquqiy mas'uliyatni ta'minlashning muhimligi oshib bormoqda. Ularning ishlash mexanizmlari, nazorat mexanizmlari va javobgarlikni belgilash o'ta zarurdir.

**XULOSA:** Hammazimizga ma'lumki, sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarardan kelib chiqadigan munosabatlar umumiy tartibda Fuqaro kodeksining 57-bobida ko'rsatilgan normalar bilan tartibga solinadi. Biroq, sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zararni qoplash va javobgarlik masalalarini belgilash juda ko'p munozaralarga sabab bo'layotganligi bois, O'zbekiston Respublikasi Fuqaro kodeksiga sun'iy intellektning huquqiy maqomi va javobgarlik masalalarini belgilovchi alohida normalarni qo'shishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasini dolzarb muammoga aylantirdi. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Rossiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, SI tomonidan zarar yetkazish holatida javobgarlik ko'pincha ishlab chiqaruvchi yoki texnologiyani nazorat qiluvchi shaxslarga yuklatiladi. O'zbekistonda bu borada aniq qonunchilik bazasi hali shakllanmagan. Shu sababli :SI texnologiyalarining huquqiy maqomini belgilash ; Javobgarlik mezonlarini aniq ishlab chiqish, xavfsizlik choralari kuchaytirish kabi huquqiy mexanizmlarni joriy etish muhimdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu masala bo'yicha huquqiy normalarni tezkor ishlab chiqish mamlakatda texnologik taraqqiyot va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun zarurdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF\_6079-son farmoni

<http://old.lex.uz/docs/5030957>



2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevral PQ-4996-son qarori

<https://lex.uz/docs/5297046>

3. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyul PQ-475-son Qarori <https://lex.uz/docs/1061595>

4. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2021 yil 26-avgustdagi PQ-5234-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5603319>

5. European Parliament resolution of 16 Febru. ary 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL))

6. Aletras N, Tsarapatsanis D, Preoŧiuc-Pietro D, Lamos V. 2016. 'Predicting judicial decisions of the European Court of Human Rights: a Natural Language Processing perspective', PeerJ Computer Science 2:e93 <https://doi.org/10.7717/peerj-cs.93>.

7. Netherlands Juristenblad 2018-04 no. 207.9. Institute for Crime and Justice Policy Research World Prison Brief, [prisonstudies.org](http://prisonstudies.org) last visited on 6 December 2019.

8. <https://www.ai-liability-directive.com/>

9. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ). European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial systems and their environment. Strasbourg, Council of Europe 2019.

10. F. Contini, en G.F. Lanzara. (2017), 'The elusive mediation between law and technology' in P. Branco, N. Hosen, M. Leone and R. Mohr (eds), Tools of Meaning: Representation, Objects, and Agency in the Technologies of Law and Religion, I Saggi di Lexia, Aracne, Rome 2018 p. 4–9.

11. <https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/6216/text>

12. [tps://en.unesco.org/artificial-intelligence/ethics](https://en.unesco.org/artificial-intelligence/ethics) (дата обращения 5.08.20 г.)

13. <https://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/72738946/>